

Халқ депутатлари Сурхондарё вилояти Узун тумани Кенгашининг қарори

e-qaror.gov.uz

20.07.2022



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI UZUN TUMANI KENGASHINING QARORI

Uzuntumani, O'zbekistonko'chasi 7-uy, tel.: (+99876)44-73-545, uzun.t@esat.uz

2022 - yil 15 - iyul

VI-45-90-8-118-K/22

Uzun tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoniga asosan tumanda Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasining amalga oshirilgan faoliyati to'g'risida

Uzun tuman hokimligi, Bolalarni himoya qilish shubasi mudiri S.Raxmonovning O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6275-son Farmoniga asosan 2021-yil hamda 2022-yilning 6 oy mobaynida Bolalar masalalari bo'yicha tuman komissiyasining amalga oshirgan ishlari to'g'risida tegishli doimiy komissiyada eshitilganligi inobatga olinib, bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha shuba mudirining 2021-yil va 2022-yilning 6-oy davomida amalga oshirilgan ishlar, istiqbolli rejalar to'g'risidagi axboroti tegishli doimiy komissiyada eshitilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish masalalari bo'yicha shuba va komissiyaga:

“Mehr daftari”ga kiritiladigan vasiylikka (homiylikka, patronatga) olingan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning muammo (ehtiyoj, qiziqish)larini o‘rganib chiqish;

o‘rganish natijasiga asosan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, shu jumladan, vasiylik, homiylikka (patronatga) olingan bolalarning muammo (ehtiyoj, qiziqish)larini hal etishga qaratilgan yo‘l xaritasini

ishlab chiqish vazifasi yuklatilsin.

- Bolalar salomatligi bilan bog‘liq mavjud holatdan kelib chiqib, 2022-yilda sog‘lom bolalikni ta‘minlashda nafaqat tibbiyot xodimlari balki, har bir ota-ona bobo-buvilarining ma‘sulyatini yanada oshirish;

- maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilishga qaratilgan me‘yoriy hujjatlar ijrosini ta‘minlashda yolg‘iz ayollar va uy bekasi bo‘lgan onalarga imtiyozlar berilishini yo‘lga qo‘yishga e‘tiborni kuchaytirish;

- bolalarning salomatligi, ruhiyati va kelajagi bilan bog‘liq eng jiddiy vazifalardan biri;

- oilaviy ajrimlarni keskin kamaytirish, er-xotin va oilaning boshqa a‘zolari o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etish, oilaviy nizolarni sudgacha yetib borishi oldini olish, bu borada jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga e‘tibor qaratish;

- bolalar bilan ishlovchi mas‘ul xodimlarning malakasini oshirish, ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish, yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta‘minlanishidagi muhim vazifalar borasidagi ishlarni izchil davom ettirish vazifalari topshirilsin.

Image not found or type unknown

